

AN'ANAVIY O'ZBEK MUSIQASIDA MUALLIFLIK MASALASI**Shoxbozbek ABDUXOSHIMOV,***Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi.*

Annotatsiya: Mazkur maqola an'anaviy o'zbek musiqasida mualliflik masalalari tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'tmish bastakorlarining o'z asarlariga nom berishi, Shashmaqom tarkibidagi durdona musiqiy namunalarda mualliflik masalasi tahliliy bayon etiladi. Bundan tashqari, maqolada bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ilmiy-nazariy o'rganilishi kabi masalalar ham tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: bastakor, maqom, Shashmaqom, sho'ba, ashula, hofiz, sozanda, musiqashunos.

O'zbek an'anaviy musiqasining asosiy yo'nalishlaridan bo'lmish bastakorlik ixtisosligi uzun va murakkab tarixiy yo'li davomida san'atning oliy namunasi maqomidan tortib, unutilayozgan ijod usuligacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Ushbu betakror ijod an'anasi xalqimiz ma'naviy xazinasini boyitishda va uning dard-u alami, quvonch-u shodligi, orzu va maqsadlarini ifodalashda muhim vositadir. O'z sir-u sinoatlariga ega ushbu mo'jizakor ijod turi bugungi kunda ilmiy va tarixiy jihatdan ko'proq e'tibor va e'tirofqa muhtoj.

T.G'ofurbekovning yozishicha: "Sir emas, so'nggi deyarli 150 yil (Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgan davr) mobaynida, ayniqsa, yaqin 75-80-yillar ichida musiqa san'atimizdagi mavjud to'rt qatlam – folklor, mumtoz musiqamiz, bastakorlik ijodi va kompozitorlik asarlaridan faqat oxirgisiga urg'u berib kelindi" [2, 39-b.]. San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor R.Yunusov esa o'tgan asrda bastakorlik san'atiga bo'lgan munosabat haqida yozar ekan, jumladan, shunday deydi: "Ko'hna va zamonaviy o'zbek milliy bastakorligining o'ziga xos xususiyatlari, qadriyatlari to'g'risida qanchayin ko'p va yoqimli so'zlar aytilgan bo'lmasin, amalda hisobga olinmagani, unga "istisno" o'rnida qaralgani achinarlidir. Mumtoz bastakorlikning uzun tarixi, barkamol ijodiy qonuniyatlari, o'zgacha rivojlanish xususiyatlari, ayniqsa yangicha ko'rinishlari rasman tan olinmadi. Shuning uchun ham yurtimiz mustaqillikka erishgan davriga qadar bastakorlik merosi ilmiy jihatdan qisman o'rganilgan bo'lsa-da, istiqboli yo'q oqimlar qatorida ko'rildi" [3, 8-b.]. Oqibatda, o'zining boy tarixi va barkamol an'anasiga ega bastakorlik san'atining nufuzi sun'iy tarzda haminqadar pasaytirildi. Achinarlisi, hali-hanuz ushbu ijod usuli bilan bog'liq tarixiy, ilmiy-nazariy, ijodiy adolat to'laqonli tiklanganicha yo'q. Mumtozlik darajasiga ko'tarilgan ba'zi musiqiy namunalarning mualliflari asar nomi bilan qo'shib

zikir etilsada, ularni muallifi noma'lum yoki xalq musiqasi deya e'tirof etish bugunda ham urfdan chiqqanicha yo'q. Shu va shu kabi odatga aylangan qarashlarni tarixiy isbotlar bilan, agar yetarli bo'lmasa, aqalli eng munosib ilmiy farazlar ila o'z joyiga qaytarish vaqti allaqachon kelib bo'lgan.

Bizgacha yetib kelgan musiqa namunalari asrlar davomida shakllangani va sayqal topgani, aniq. Darhaqiqat, azaldan badiiyatsevarligi barchaga ma'lum bo'lgan xalqimizning har bir vakili yaratuvchilik qobiliyatiga ega. Shu nuqtai nazardan qaralganda, iste'dodli shaxslar tomonidan yaratilgan kuy, qo'shiq va ashulalar avloddan avlodga, ustozdan-shogirdga og'zaki an'ana tarzida o'tib, har bir boshqa shaxs ijrosida yangi qiyofa kasb etgani va biroz o'zgargani ma'lum bo'ladi. Bunga sabab qilib esa, o'sha davrda nota yozuvi urfga kirmaganligini keltirishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, Yevropa mumtoz musiqasi an'alaridan farqli o'laroq ijrochilarimiz nota yozuvi, ya'ni ijro etiladigan asarning ma'lum yo'liga qat'iy rioya etmaganlar. Aksincha, har bir ijrochi, u kim bo'lishidan qat'i nazar, ijro etiladigan asarga erkin tarzda yondashgan. Bunda muayyan musiqachining ijro imkoniyatlari, asarni o'zicha his etishi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, ta'bir joiz bo'lsa, badiihalashtirganini tasavvur etish qiyin emas. Mana shuning natijasida kuy, qo'shiq va ashulalar sayqallangan va to'ldirilib, takomillashtirilgan. Har yangi ijrochi asarga o'zidan kelib chiqqan holda turli-tuman o'zgartirishlar kiritgan. Bir nechta ijrochilar avlodi o'tgandan so'ng esa u asar yakka shaxsning emas, balki, bir qancha shaxslarning mulkiga aylangan. Xuddi shu sabab bir nechta ijrochilar tomonidan takomillashtirilgan asarni xalq musiqasi ijodi yoki xalq musiqasi deyishlariga asos bo'lib xizmat qilgan deyish mumkin.

Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, o'ziga xos musiqiy-ijodiy tafakkur sohiblari – bastakorlar haqidagi ilk ma'lumotlar ulug' qomusiy alloma Abu Nasr Forobiy (873-950) ijodida o'z aksini topgan. Olim bo'lishlik bilan bir qatorda sozandalikni, ayrim tarixiy manbalarga ko'ra bastakorlikni ham uddasidan chiqqan "muallim us-soniy" o'z davri musiqasi hayoti va amaliyoti, ilm-fani va falsafasi borasida olib borgan tarixshumul tadqiqotlari natijasida nafaqat bastakorlik, balki, musiqa haqidagi ulkan bo'shliqdan iborat tarixiy tasavvurimizni ham barpo etgan edi.

Markaziy Osiyo tarixida ilk uyg'onish davri sifatida e'tirof etiladigan Somoniylar davriga kelib, barcha sohalar qatori, musiqa san'ati, xususan, bastakorlik alohida, mustaqil ijodiyot turi sifatida o'z tarixidagi yangi davrni boshdan kechirgani ham bizga yaxshi ma'lum. Zikir etilgan davrni esa butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan Borbad (taxminan 585-628) siymosisiz tasavvur etish mushkul. O'sha davrga taaluqli bizga ma'lum bo'lgan deyarli barcha tarixiy manbalarda yuksak e'tiroflar ila zikir etiladigan Borbad qadim bastakorlik san'atining ilk karvonboshisi sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Keyinchalik Amir Temur va temuriylar, Mirzo Bobur va boburiylar sulolasi davrida ilm-fan, madaniyat va san'at gullab yashnadi. Ilmiy va badiiy adabiyot namunalarida bastakorlik san'ati haqida ma'lumotlar yozish boshlandi, soha o'z tarixi va ta'rifini topdi. Ana shu tarixiy manbalarga muvofiq bastakorlik san'ati uzoq o'tmishga borib taqalishi va qadimda ham mashhur bo'lgan aniq bastakorlar mavjudligi oydinlashadi. Musiqashunos olim T.G'ofurbekov o'zining "Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке" monografiyasida O'rta asrlar adabiyotidan muayyan mumtoz kuylarimiz ta'rifi, ularga bog'langan she'r muallifi haqida ma'lumot yig'ib, she'r va musiqani bir-biriga mantiqan moslashtirib, shaklan va mazmunan taqqoslab ko'rgan. Olimning yozishicha: "Alisher Navoiy g'azaliga Xoja Abdullo Marvarid yaratgan "Mustazod"ni Boburning o'z g'azaliga bastalagan "Savti Chorgoh" yo'llaridagi asarini gipotetik tiklashga harakat" [4, 166-b.] qilindi.

Hijriy 900-yillarda yashab ijod etgan bastakor Yusuf Hoja Andijoniy haqida Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Darvishali Changiy, Boburlar o'z risolalarida, badiiy asarlarida turli tarzda ma'lumot qoldirganlar. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra uning musiqqa bobida mashhur ekani ta'kidlanadi. Bundan tashqari Sulton Uveys, Qul Muhammad Udiy, Shayxiy Noyi, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Ja'far Qonuniy kabi o'nlab mahoratli bastakorlar bo'lgani haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Darvishali Changiyning yozishicha "ma'rifatchilar donosi" Mirzo Ulug'bek muayyan usullar yaratganligi, "iste'dod va ezgulik xazinaboni" Husayn Boyqaro 17 ta, "millat va din saranjomchisi" Alisher Navoiy 7 ta usul muallifi bo'lgan ekan [5, 28-b.].

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan qomusiy olim, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, 1-o'zbek professori Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitratning yozishicha: "Bu kun O'zbekistonning ko'b o'runlarida "Qari Navoiy" ismli bir kuy bor. Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonda so'ylanib turadir. Buxoroning eski musiqiyshunoslari orasida bu kuyning Navoiy asari bo'lg'ani so'ylanadir. Mana shu ma'lumotlardan so'ng "Qari Navoiy" kuyining Alisher Navoiy asari bo'lg'ani ehtimoli kuchlanib qoladir... Navoiyning musiqiyg'a xizmati yolg'uz kuylar bastalamak bilan qolmaydir... Navoiyning o'zi ham musiqiyda bir risola yozg'an deb so'ylanmakdir" [6, 41-43-b.]. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning ham bastakor bo'lgani haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi, Fitrat esa "Qari Navoiy" kuyining Navoiyniki ekaniga inonib kuyning qo'lyozma nota yozuvini o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli risolasida keltiradi.

Bundan tashqari Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodalarning "Xorazm musiqiy tarixchasi" nomli risolasiga tayanib Fitratning ma'lumot berishicha: "Polvonniyoz mirzaboshi Komil, "Xorazm chizig'i"ni tuzgan kishi... Musiqiyda "Murabba'yi Komil" degan bir kuy ham bog'lag'andir...

Ikkinchi Muhammadrahiymxonning o'zi ham ulug' musiqiyshunoslardan sanaladir. "Muxammasi Feruz", "Saqiyli Feruz" kabi ko'b kuylar bog'lag'an" [6, 50-b.] ekan. Demak, IX asrlardan (aslida Borbad yashagan VII asrlardan) boshlangan ilmiy, badiiy va tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha xalq va saroy orasida taniqli bo'lgan mahoratli bastakorlar bo'lgan ekan. Ular yangi-yangi musiqiy asarlar bastalab, bastakorlik rivojiga hissa qo'shganlar. Ehtimol, bunday shaxslar o'tmishda kam bo'lmagan. Shunga qaramay ular haqida nisbatan kam ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. U davrlarda mualliflik masalasi, muayyan asarning ma'lum bir bastakor ijodidan ekani ko'pincha zikr etilmagan. Zero, yaqin davrlarga qadar mahoratli ijodkor-ijrochi ustozlarda o'zini pesh qilish odati bo'lmagan, o'z asarlariga mualliflik tamg'asini bosishni xohlashmagan.

Tasavvur qilaylik, qadimda mumtoz kasbiy musiqa asosan shahar muhitida rivojlangan. Bunda ziyoli amaldorlarning hissasi sezilarli. Oddiy xalq musiqasidan farqli o'laroq ziyoli qatlam uchun musiqani kasb qilib olgan, bu san'at turida ulkan qobiliyat va salohiyat sohibi bo'lganlar ijod etgan mumtoz musiqa asrlar davomida muntazam boyib, rivojlanib borgan. Keyinchalik, ushbu musiqa namunalari jamlanib, turkum holatga keltirilib maqomlar ko'rinishigacha yetib kelgandir, balki. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, maqomlarning aniq qonuniyat, puxta tuzilgan shakl-reja va albatta, rivojlantirilgan nazariya asosida muayyan ijrochi, bastakor va musiqashunoslar tomonidan tartiblashtirilganini tasavvur etish mumkin.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi sahifalarida qayd etilishicha: "Bastakorlik an'anaviy ijrochi (xonanda, ayniqsa sozanda)likdan turtki olib, maqom ijodchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dastlab (XIII) o'n ikki maqom, so'ngra (XVI-XVIII) uning zaminida Shashmaqom, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqom turkumlari shakllanishiga sabab bo'ldi" [1]. Darhaqiqat, qanchalik barkamol va hashamatli bo'lmasin maqomlarni ham qachonlardir, qaysidir bastakorlar yaratganiga shubha yo'q. Muammo shundaki, ularning nomi va xizmatlari haqidagi aniq ma'lumotlar bizga juda kam yetib kelgan.

Shunga qaramay birgina Shashmaqom turkumini kuzatar ekanmiz, ba'zi bir musiqiy asarlar nomida muallif ismiga ishora etilganligini guvohi bo'lamiz. Misol uchun, Buzruk maqomidan Muxammasi Nasrullovi, Saqili Islim, Saqili Sulton, Nasrullovi, Savti Sarvinoz; Dugoh maqomidan Muxammasi Hojixo'ja, Saqili Ashkullo, Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh; Segoh maqomidan Muxammasi Mirzahakim, Saqili Bastanigor kabi o'nlab musiqiy asarlarning nomlanishida uning ijodkoriga ishora qilinganday ko'rinadi. Bu kabi misollarni Xorazm maqomlaridan va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan ham yetarlicha keltirish mumkin. Fikrimizcha, bu asarlar maqomlar rivojlangan va shakllanib bo'lgan, zamonamizga nisbatan yaqinroq davrlarda ijod etilgan bo'lsa kerak.

O'tgan asrda yashab ijod etgan musiqiy manbashunos va maqomshunos alloma Is'hoq Rajabov yozganidek: "Bastakor-sozandalarning asrlar davomida maqom mavzularida kuy va ashulalar yaratib kelganliklari va hozirgi kungacha ham ular ta'sirida yoqimli va ajoyib asarlar yaratayotganliklari maqomlarning xalq musiqa ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko'rsatadi" [7, 304-b.]. Mashaqqatli izlanish va tahlillar natijasida paydo bo'lgan ushbu xulosaviy fikrda katta haqiqat mujassam. Darhaqiqat, shu o'rinda yana ustoz I.Rajabovning fikrlarini keltirish o'rinli nazarimizda: "Maqomlar – xalq musiqasi qomusidir" [8, 19-b.]. Bastakorlar esa xalq musiqasini puxta o'zlashtirgan, xalq ichidan yetishib chiqqan ulkan iste'dod sohiblaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "B" harfi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent (elektron versiya).
2. To'xtasinbek G'ofurbekov. O'zbekiston musiqa madaniyati (o'quv qo'llanma). "Musiqah" nashriyoti, Toshkent 2019.
3. Равшан Юнусов. Фахриддин Содиков. "ЮНЕСКО", Тошкент, 2005.
4. Тўхтасинбек Гофурбеков. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. "Ўзбек бастакорлигида муаллифлик масаласи" мақоласи. Т., "Muharrir" нашриёти, 2019.
5. Хафиз Дарвиш Али ал-Хакани ибн Мирзо Али Чанги ибн Абдул Али Конуни ибн Амир Хошим Конуни ибн Хожа Абдулла Марварид. Трактат о музыке. Пер. с пер.-таджикского языка Д.Рашидовой. Библиотека НИИ искусствознания. Инв. №879.
6. Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Тошкент: "Фан" нашриёти, 1993.
7. Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир О.Иброҳимов. Тошкент, "San'at" нашриёти, 2006.
8. Is'hoq Rajabov. Maqom asoslari. 2-nashr. Nashrga tayyorlovchi: R.Yunusov. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2019.